



**OILA TURMUSH DOIRASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARNING KELIB
CHIQUISHI VA ULARNING VIKTIMALOGIK PROFILAKTIKASI**

**THE ORIGIN OF CRIME IN THE FAMILY AND THEIR
VICTIMOLOGICAL PREVENTION**

Nurobod tuman IIB JXX XPB profilaktika inspektori leytenant

J.T.Obloqulov

Nurabad district Internal Affairs Department of the Criminal Investigation

Department prevention inspector lieutenant

J.T. Obloqulov

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola orqali siz tadqiqot mavzusining dolzarbligi, predmeti, ob'ekti, vazifalari, zo'ravonlik turlari, oila turmush doirasi huquqbuzarlikni oldini olish yo'llari, oilaning rivojlanish tarixi, turmush doirasidagi huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillar, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, bugungi kundagi holati, shuningdek ushbu hamkorlikdagi muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqilgan.

ANNOTASION: Through this article, you will learn about the relevance of the research topic, its subject, object, objectives, types of violence, ways to prevent domestic violence, the history of family development, factors that cause domestic violence, the early prevention of these types of violence, its current status, as well as the problems and shortcomings in this cooperation and a number of proposals have been developed to eliminate them.



Kalit soʻzlar: oila, zoʻravonlik, oiladagi zoʻravonlik, oiladagi muhit, erta turmush, profilaktika inspektorlarining oila turmush doirasida huquqbuzarliklarni oldini olish.

Keywords: family, violence, domestic violence, family environment, early marriage, prevention of violations within the family by preventive inspectors.

Oilaning rivojlanish tarixi juda murakkab va uzoq jarayonni oʻz ichiga oladi. Oila, insoniyatning ilk davrlaridan boshlab, turli sotsial, iqtisodiy va madaniy oʻzgarishlar bilan birga rivojlangan. Ilk odamlar hayoti urugʻlar yoki jamoalar shaklida boʻlgan. Ularning asosiy faoliyati hayot davomida birgalikda oziq-ovqat toʻplash, ov qilish va xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan edi. Shunday qilib, oilaviy munosabatlar va qarindoshlik tizimi ham birlashgan boʻlib, jamiyatda bir-birini qoʻllab-quvvatlash va birgalikda yashash tamoyillari mavjud edi. Qishloq xoʻjaligi rivojlanishi bilan, oila tuzilmasi ancha murakkablashdi. Ertalabdan kechgacha mehnat qilishga zarurat tugʻilganda, oila ichidagi roʻl va vazifalar yanada aniqroq boʻldi. Ota-ona va bolalar orasida oilaviy ishlar va masʼuliyatlar taqsimlandi, bu esa ijtimoiy tuzilma va oʻzaro munosabatlarning mustahkamlanishiga olib keldi. Ayniqsa, XX asrning oʻrtalaridan boshlab, oila shakli va roli sezilarli darajada oʻzgardi. Ayollar huquqlari, jinsiy tenglik va ijtimoiy islohotlar tufayli oila ichidagi rollar yanada oʻzgardi. Oila shakllari anʼanaviy (ota, ona, farzandlar) va zamonaviy (bir jinsli oilalar, ajrimlar) shakllarda mavjud boʻlib, ijtimoiy tenglikka intilish oila tuzilmasining rivojlanishiga taʼsir koʻrsatmoqda. Hozirgi kunda, oila tuzilmasi va ijtimoiy munosabatlar har xil va juda farq qiladi. Ajrimlar koʻpaydi, bir jinsli oilalar yuridik jihatdan tan olinmoqda, va oila shakllari anʼanaviydan farq qiladigan koʻplab yangi turlarini oʻz ichiga oladi. Internet ham oila aʼzolarining oʻzaro munosabatlariga taʼsir qilmoqda, masalan, uzoq masofadagi oilalar va onlayn aloqa vositalari orqali oʻzaro muloqot. Shu



tariqa, oila tuzilmasi va uning rivojlanishi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga qarab o'zgarib borgan va har bir davrning xususiyatlariga moslashgan.

Oila turmush doirasida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar tahlillariga asoslanib, oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratdik:

a) oiladagi nosog'lom ma'naviy-ruhiy muhit; b) oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zaifligi yoki sustligi; v) oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar; d) oila a'zosi (a'zolari)ning spirtli ichimlikka ruju quyishi; ye) asossiz meyoridan ortiq rashk, erkak va ayolning xiyonati; j) erta turmush qurish, yosh oiladagi munosabatlarga noo'rin aralashuv.

Oilada nosog'lom ma'naviy-ruhiy muhit. Oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar, eng avvalo oiladagi nosog'lom ma'naviy- ruhiy muhitning mavjudligi bilan taqozo etiladi. Kriminolog olimlarning ta'kidlashicha, shaxs shakllanishida oiladagi muhit dolzarb ahamiyatga ega. Rossiyalik olim Y.M.Antonyanning fikricha, oiladagi zo'ravonlikning asosiy sabablaridan biri – ota-onaning farzandiga mehr qo'ymaganligi, uning tarbiyasiga e'tiborsizligidir. Shaxsning bolalikda mehr-muruvvatdan mahrum qilinishi uning ruhiyatida bezovtalik, qo'rqinch, nafrat kabi hissiyotlarni shakllantiradi. Bu hissiyotlar ongsiz ravishda qayd etib boriladi va murosasiz xulq- atvorning, jumladan uning eng ashaddiy ko'rinishi oilada zo'ravonlikning paydo bo'lishiga olib keladi. Agar oilada ma'naviy-axloqiy muhit nosog'lom bo'lib, er-xotin va boshqa oila a'zolari o'rtasida mehr-oqibat, bir-birini mensimaslik, qo'pollik, hurmatsizlik mavjud bo'lsa, bunday oilalarda tez-tez nizolar kelib chiqishi muqarrardir. Har qanday voqea hodisaning, shu jumladan jinoyatlarning sodir etilishida kriminogen omillarning ta'sir etishi muayyan oqibatning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oiladagi nizolarni kelib chiqishida er-xotin o'rtasidagi munosabatning samimiy emasligi, oila sharoitida yuzaga keladigan



muammolarga yuzaki qarash, bola tarbiyasidagi beparvolik, qaynona-kelin o'rtasidagi g'ayriijtimoiy munosabatlar, bir-birini tushunish kabi insoniy fazilatlarining yo'qligi kriminogen omillardan biri hisoblanadi.

Misol uchun, 1987 y.t. M. ismli fuqaro uyida spirtli ichimlik iste'mol qilib, mast holda turmush o'rtog'ini turli behayo so'zlar bilan haqorat qilishi natijasida kelib chiqqan janjalda xotinini do'pposlab, unga nisbatan tan jarohati yetkazgan. Ushbu oilada bu kabi nizolar tez-tez bo'lib turgan bo'lsa-da, xotini farzandlari taqdirini o'ylab bu haqida tegishli organlarga murojaat qilmaganligi M.ga bunday xatti-harakatlarni davom ettirishiga sabab bo'lgan. Oila turmush munosabatlari doirasida zo'rlik ishlatishga ko'p hollarda oilaviy nizolar sabab bo'lib, bu ularning bir-biriga nisbatan tan jarohat yetkazish, haqorat qilish, qiynash, xavf ostida qoldirishga ba'zida esa qasddan odam o'ldirishgacha ham olib kelishi mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, oiladagi ushbu qilmishlarning sodir etilishiga olib keluvchi asosiy omil - oiladagi nosog'lom muhit oqibatidir. Oiladagi nosog'lom muhit ota-onaning bola tarbiyasiga mas'uliyatsizlik bilan qarashiga va shaxsda salbiy xulq-atvorning paydo bo'lishiga olib keladi. Oilada ota ona bir-birlarini hatto kichik farzandlarini ham «siz»lab gapirishsa, oilada nizoli vaziyatlarda ham hech bir urush-janjalsiz o'ta noziklik bilan muammoni qilish mumkin.

Hozirgi jamiyatda ayrim toifadagi oilalarda ota yoki onaning, farzand va ota-onalar o'rtasidagi nizolar va ularning bir-biriga nisbatan hurmatsizligi tufayli salbiy oqibatlar kelib chiqmoqda. Ma'lumki, ota-onaning o'z farzandiga qo'pollik yoki ularga nisbatan zulmkor munosabatda bo'lishi ularning ongu-tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi. Boz ustiga, agar ota oilada o'zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga o'zining qo'pol xulqini namoyon etsa, bu holat, tabiiyki, bola ma'naviy olamining shakllanishiga uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk bir odat sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, oiladagi ma'naviy muhitning nosog'lomligi oilada kriminogen vaziyatlarning kelib



chiqishida muhim o‘rin o‘ynaydi. Xalqimizning «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan dono maqoli mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi.

Oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar. Oiladagi moddiy ta‘minotning yetarli emasligi ham oilada nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi kriminogen omillardan biri hisoblanadi. Ta‘kidlash kerakki, aksariyat oilalarda moddiy yetishmovchilik yoki qiyinchilik yuzaga kelgan taqdirda ushbu muammoning yechimini topish va uni bartaraf etishga harakat qilashadi. Lekin shunday oilalar ham borki, ayoli oilada barcha moddiy va boshqa ne‘matlar mavjud bo‘lsa-da ro‘zg‘or, kiyim- kechak va boshqa ehtiyojlar uchun moddiy yetishmovchilik borligini aytib, turmush o‘rtog‘i bilan oilaning ta‘minoti masalasida turli xil ziddiyatlarga boradi. Ma‘lumki, islom ta‘limotida oilada urning vazifalaridan eng muhimi xotinning haqlarini to‘la ado etishdir. Uni qurbi yetguncha risqu- ro‘z, kiyim-kechak va uy-joy bilan ta‘minlash urning zimmasidagi vazifadir.

Oila a‘zosi (a‘zolari)ning spirtli ichimlikka ruju quyishi. Oilada nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri bu - shaxsning spirtli ichimlikka ruju qo‘yishidir. Ma‘lumki, spirtli ichimlik iste‘mol qilish natijasida shaxs o‘zining xatti-harakati oqibatini anglab yetmasligi, jamiyatga, atrofdagilarga nisbatan befarqlik va hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lish kabi holatlar kelib chiqadi. Spirtli ichimlik oila turmush doirasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi kriminogen omillardan biri bo‘lib, uning ta‘sirida ko‘pgina huquqbuzarlik va nizoli vaziyatlar kelib chiqadi. Umumiy tahlillarga qaraganda, oila turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining 70%dan ortig‘i ichkilikbozlik oqibatida sodir etilmoqda.

Asossiz (meyordan ortiq) rashk, erkak va ayolning xiyonati. Oilaviy hayotda er yoki xotin o‘rtasida nizolarning kelib chiqishiga meyoridan ortiq rashk qilish yoki shunday qilmish bilan ayblash kabi omillar ham mavjud. Bunday holatlar ko‘pincha erkaklar tomonidan sodir etilib, ayollarning oiladan ketib



qolishiga, oilaning buzulishiga, ba’zida esa turli ko‘rinishdagi jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Rashk asosan quyidagi ko‘rinishda sodir bo‘ladi.

- 1) ayol yoki erkakning bir-biriga nisbatan xiyonatkorligi;
- 2) oila a’zolarining bir-biriga nisbatan ishonch yoki hurmatning yetarli darajada emasligi;
- 3) shaxsdagi g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlar va salbiy xulq-atvor.

Erta turmush qurish, yosh oiladagi munosabatlarga noo‘rin aralashuv.

Mutaxassislarning fikricha, yosh oilalarda er-xotinning oilaviy hayot to‘g‘risidagi tasavvurlarining o‘zaro mos kelmasligi, turli bahonalar bilan bilan yetishmovchilikni ro‘kach qilishi, bir-birini tushunmasligi, yoshlar hayotiga ota-on va yaqin qarindoshlarning noo‘rin aralashuvi, oilaviy muammolarni hal etish borasida hayotiy tajribaning yetarli emasligi, yoshlarning nizo sodir etilganida to‘g‘ri qaror qabul qila olmasliklari oiladagi nizolarning kelib chiqishiga va oilaviy ajrimlarga sabab bo‘lmoqda.

Oila turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning viktimalogik profilaktikasi — bu oila ichidagi jinoyatlar yoki zo'ravonliklardan himoya qilish, ularni oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan profilaktik choralarning tizimi. Oila ichidagi zo'ravonlik yoki boshqa huquqbuzarliklarning viktimalogik profilaktikasi esa, aynan bu sohadagi jinoyatlarning oldini olish va jabrlangan shaxslarning holatini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishni anglatadi.

Bunday profilaktik tadbirlarning ba'zi asosiy yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Ma'lumot va ta'lim berish: Oila ichidagi huquqbuzarliklar haqida xabardorlikni oshirish, ota-onalar va farzandlar uchun huquqiy hujjatlar, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha seminarlar va ma'ruzalar o'tkazish.



2. Jabrlanganlarga yordam: Oila ichida zo'ravonlikka uchragan shaxslar uchun maxsus yuridik, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish, jabrlanganlarga qo'llab-quvvatlash markazlari ochish.

3. Yuridik va psixologik profilaktika: Oila zo'ravonligini oldini olish uchun jinoyat sodir etilgan oilalarda profilaktik ishtirok qilish, potentsial jinoyatchilarni psixologik yordam bilan ta'minlash va jinoyatning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

4. Huquqiy jazo va choralarning kuchaytirilishi: Oila ichidagi huquqbuzarliklarni engillashtirish va jabrlanganlarni himoya qilish uchun qonunlar, tartib-qoidalar va jazolarni kuchaytirish.

5. Jamiyatda madaniy o'zgarishlarni yaratish: Oila ichidagi zo'ravonlikka qarshi ijtimoiy qarashlarni o'zgartirish, bu muammoning jamiyatdagi qabul qilinmasligini targ'ib qilish.

Viktimalogik profilaktika, ayniqsa, oiladagi muammolarni hal qilish va zarar ko'rgan shaxslarga yordam berish orqali, oilaviy zo'ravonliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Foydalangan Adabiyotlar

1. *Murodov Alisher Sharofxonovich (Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish Toshkent 2019)*
2. *Ibrohimova Zulhumor Solix qizi (Oilaga qarshi jinoyatlarlarning jinoiy huquqiy va kriminologik jixatlari Toshkent 2022)*
3. *O.Zakirova (Rashk tufayli sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurash muammolari)*
4. *Internet saytlari lex.uz*